

and gradually become confident speakers. In summary, combining communicative, interactive, and technological approaches creates a dynamic learning environment that enables learners to develop effective oral communication skills and prepare for real-world interactions in English.

References:

1. To‘xtayev N. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan va innovatsiya, 2022.
2. Karimov B. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Ilm-fan, 2020.
3. Rahmonov D. Ilmiy ish yozish va rasmiylashtirish qoidalari. – Toshkent, 2019.
4. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007.
5. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
6. Brown H. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2007.
7. Nunan D. Language Teaching Methodology. – London: Prentice Hall, 2003.
8. Scrivener J. Learning Teaching. – Macmillan Education, 2011.
9. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge University Press, 2004.
10. Yulduz Kasimova. The Philosophy Of Life And Internal Conflicts Of Adolescents In The Works Of Utkir Hoshimov. Stanford Database Library of American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 5(12), 124–127. 2025.
<https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume05Issue12-24>

VATAN KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA AKS ETUVCHI “UY, TOM VA O‘LKA” SO‘ZLARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK TALQINI

Shodiyeva Shoxida Inatovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Tel: +99897 438-48-99

Annotatsiya: Tilning leksik-semantik tabiatiga e‘tibor bersak, “Vatan” konseptida tildagi mavjud so‘z-konseptlar yig‘indisi semantik maydonni, o‘ziga xos mavzuiy guruhlarni hosil qiladi. Maqolada ushbu semantik maydondagi “uy, tom va o‘lka” so‘zlarining funksional-semantik talqini xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: uy, qadriyat, oila, semantik maydon, gender xususiyat tom, o‘lka, vatan. .

Uy so‘zi Vatan konseptining yadrosida turadigan tushuncha hisoblanadi. Uy deganda har bir insonning muqaddas qadriyati oilasi, oila a‘zolari bilan, dastlab, bobo-buvisi, ota-onasi, opa-singillari, aka-ukalari bilan yosh ulg‘aygan turmush o‘rtog‘i, farzandlari, kelinlari, nabiralari bilan istiqomat qiladigan, yashaydigan maskani tushuniladi. Aslida har bir insonning tug‘ilib o‘sgan, yashaydigan uyi uning VATANI hisoblanadi. Shoir Azim Suyunning “O‘zbek” she‘rida shunday satrlar bor:

*Nimalarni yaxshi ko‘radi o‘zbek?
Uylarini yaxshi ko‘radi o‘zbek,
To‘ylarini yaxshi ko‘radi o‘zbek.
To‘ylariga ataylab boqqan
Qo‘ylarini yaxshi ko‘radi o‘zbek [6].*

Darhaqiqat, o‘zbek yaxshi niyat bilan uy quradi, bu uylarda to‘ylar qilsin deb, kattalardan duolar olinadi. Uy - bu qadriyat. Uy so‘zining bugungi tilimizdagi dastlabki yashash uchun qurilgan bino ma’nosidan, to katta bir Vatan ma’nosiga qadar bo‘lgan jarayon shu xalqning yashash tarzi va qadriyatlari natijasida paydo bo‘lgan. Sevimli shoiramiz Halima Xudoyberdiyeva “Shunday uy bor” she‘rida *uy* so‘zi bilan oila chambarchas bog‘liqligini shunday ta’riflaydi:

*Shunday uy bor, devorlari metindan metin,
Ko‘rar faqat muhabbatning o‘tli yozini.
Yotog‘ida juda qisqa tuyuladi tun,
Devorida baxt pichiri qolar yozilib.
Shunday uy bor, odamdayin bosh eggan quyi,
Ustunlari ketgudayin saldan cho‘rt sinib.
Yotog‘ida tun o‘tmog‘i ajaldan qiyin,*

Devorida xo‘rsiniqlar qolar xo‘rsinib [1]. Baxt ham, baxtsizlik ham *uyda* odam qanday hayot kechirayotganligi bilan bog‘lik ekanligini shoiramiz juda ta’sirli tasvirlagan.

Uyning xonadon, hovli ma’nosidan tashqari, uning qismini bildiruvchi xona ma’nosi ham mavjud: “*Bu bulutli havoni ochmoq faqat onaning vazifasi edi: - Otasi bomdoddan kirsin, -dedi u Saltiga qarab, - men o‘zim yotig‘i bilan aytib ko‘ray, yo‘q demas, - so‘ngra Zebiga yuzlandi: - Sen, qizim, uyga joy qil, o‘rtog‘ingni o‘tqiz, dasturxon sol. Biz, otang bilan, choyni so‘rida ichib haligi gapni gaplashamiz*” (Cho‘lpon. Kecha va kunduz.)

Uy so‘zida gender xususiyati ham mavjudki, aksariyat qizlar, ayollar nutqida “ota uyim” iborasi ko‘p uchraydi:

Qizga ota yo‘li - eng qisqa yo‘ldir,

Men-ku hol so‘rmoqqa uchgayman har vaqt.

Tunlar duoday yod tilagim shuldir,

Ota uyim, sendan yuz burmasin baxt. (Halima Xudoyberdiyeva. Uzatilayotgan qiz o‘ylari [2]. Tug‘ilgan uyini tashlab ketish qismati nafaqat qizlarda, balki yigitlarda ham uchrab turadi, ayollardan farqli tomoni yigitlar kasbi bois yoki hayotdagi ba’zi sabablar bilan boshqa shaharlarga ko‘chib ketishi mumkin:

Ota uyimizda yoz-u, kuz, bahor,

Aka-ukalar-u, opa-singillar,

To‘plangan paytlari takror va takror

Porlaganday bo‘lar o‘nlab qandillar [5]. Uy - bu Vatan. Chunki o‘zining uyini sevgan, uni obod qilgan, unda baxt yarata olgan inson Vatanni obod qiladi, uni asrab-avaylaydi:

Sen Vatan deysan-u,

Porlar yuzlaring,

Mening yurtim ham o‘z

Rang-u ro‘yimdir.

Talpinib kelguvchi

O‘g‘il-qizlaring -

Bu -sening uyingdir,

Bu -mening uyim [4].

Qipchoq shevasida *tom* so‘zi ham *uy* ma‘nosini anglatadi: “*Men xiyoldan keyin turdim. Ro‘yi hushim bo‘lmadi. Tandir chetida cho‘nqayib o‘tirdim. Ko‘zlarimni uqaladim. Kerishib esnadim. Onamiz tom ketilab obtova ko‘tarib o‘tdi. Ayolimiz qo‘lyuvigichda yuz-qo‘l yuvgan bo‘ldi. Naridan-beri artingan bo‘ldi. Buzog‘ini yetaklab kelib molini emizdi*”. (Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar.) Uy so‘zi oddiy so‘zlashuv uslubida, badiiy va publitsistik uslubda ham faol qo‘llaniladi.

O‘lka so‘zida ham mamlakat, yurt, vatan ma‘nosi mujassam. O‘zbek she‘riyatida *o‘lka* Vatan tasvirini chizishda faol qo‘llanadi:

Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi,

Bir o‘lkaki, qishlarida shivirlar bahor,

Bir o‘lkaki, sal ko‘rmasa, quyosh sog‘inar...

Bir o‘lkaki, g‘ayratidan asabi chaqnar [3]. Sevimli shoirimiz Cho‘lponning XX asr boshlarida Vatanning taqdiridan, holidan xavotirlanib yozgan mashhur she‘rida sarlavhasi ham “Buzilgan o‘lkaga” deb nomlanadi. She‘rda vatanni tasvirlashda o‘lka so‘zidan foydalanilgan. Garchi she‘r nomi “Buzilgan o‘lkaga” deb nomlansa-da, matn ichida biror satrda shu birikma ishlatilmaydi. Shoir “zo‘r o‘lka”, “hur o‘lka” birikmalarini qo‘llaydi. Vatanni ifodalashda o‘lka so‘zining qo‘llanishiga sabab, ushbu so‘zning sof turkiycha ekanligi bilan birga, xalq tiliga yaqinligi, jarangdor ekanligi, badiiylik xususiyati mavjudligida deb hisoblaymiz.

*Ey, tog‘lari ko‘klarga salom bergan zo‘r o‘lka,
Nega sening boshingda quyuq bulut ko‘lanka?
Uchmoxlarning kavsaridek pokiza,
Sadaflarning donasidek top-toza
Salqin suvlar tog‘dan quyi tusharkan,
Tomchilari yomg‘ir kabi ucharkan,
Nima uchun yig‘lar kabi ingraylar?
Yov bormi deb to‘rt tarafni tinglaylar?*

Xulosa qilib aytganda, “Vatan” konseptining lisoniy namoyon bo‘lishini diaxronik jihatdan tadqiq etishda uning mazmuniy tomondan rivojlanishi kuzatiladi. Rivojlanish jarayoni tarix, din, til va adabiyot asosida konseptual belgilarning mazkur konseptning tabiiy-etnik tomondan diniy-axloqiy bosqichlar va fuqarolik tushunchalari orqali vatan tushunchasi haqida milliy identifikatsiya g‘oyalari asosida to‘planishi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Halima Xudoyberdiyeva. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_zamonaviy_sheriyati/Halima%20Xudoyberdiyeva.%20Saylanma.pdf .
2. Halima Xudoyberdiyeva. Uzatilayotgan qiz o‘ylari. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_zamonaviy_sheriyati/Halima%20Xudoyberdiyeva.%20Saylanma.pdf 116b.
3. Oybek. O‘zbekiston. Ойбек. Созим www.ziyouz.com kutubxonasi 24 Ойбек СОЗИМ Шеърлар Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти Тошкент 1980. 23. 64.
4. Sirojiddin Sayyid. Bu sening uyingdir. http://nurzamon.uz/article_view.php?id=575.
5. Sirojiddin Sayyid. Diydor. (<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-she-riyati/sirojiddin-sayyid-19580>.)
6. Суюн, Азим. Мен – ерликман [Матн]. Шеърлар ва дoston / А.Суюн.— Тошкент: «ADABIYOT», 2020. — 144 б. -В.91.

ONTOLOGIK YOLG‘IZLIK FENOMENI: E.XEMINGUEYNING “CHOL VA DENGIZ” HAMDA X.DO‘STMUHAMMADNING “DONISHMAND SIZIF” ASARLARIDA “MEN” VA “O‘ZGA” MUNOSABATI

Rizayeva Shaxnozabonu Shuxrat qizi
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Sarbon universiteti “Xorijiy filologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Email: s.rizayeva@afu.uz